

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarining texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilimga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash	303



УО'К: 37.043

INKLYUZIV TA'LIMDA O'QUVCHILARNI O'QITISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБРАЗОВАНИЯ
ОБУЧАЮЩИХСЯ В ОБЛАСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EDUCATION OF STUDENTS IN INCLUSIVE EDUCATION

Mirzaqobilova Sevinch Akmal qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchi-bolalarga inklyuziv ta'lism sharoitida ta'lism berishning ijtimoiy-istiqboliy ahamiyati, pedagogik-psixologik xususiyatlari, inklyuziv ta'lism bilan qamrab olingan bolalarga individuallik tamoyillari asosida munosabat, o'quvchilar ijtimoiylashuvni jarayonlarining imkoniyat va istiqbollari, inklyuziv ta'lismi tashkil etishning huquqiy asoslari bayon qilingan. Shuningdek, mamlakatimizda inklyuziv ta'lism sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy zarurat ekanligi ochib berilgan.

Аннотация

В статье раскрыта сущность обучения детей с ограниченными возможностями здоровья в условиях инклюзивного образования, важность работы с детьми, занимающимися инклюзивным образованием на основе принципов индивидуальности, перспективы процессов социализации учащихся, нормативно-правовые основы организации инклюзивного образования, и педагогико-психологические особенности. Также раскрыты реформы, реализуемые в сфере инклюзивного образования в нашей стране, и их социальная необходимость.

Abstract

In the article, the socio-prospective importance of teaching students with disabilities in the conditions of inclusive education, pedagogical-psychological features, attitude to children covered by inclusive education based on the principles of individuality, possibilities and prospects of the processes of socialization of students, inclusive the legal basis of educational organization is described. Also, the reforms implemented in the field of inclusive education in our country and their social necessity are revealed

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lism, ta'lism-tarbiya, me'yoriy-huquqiy hujjat, imkoniyatlari cheklangan bolalar, ta'lism jarayoni, inklyuziv ta'limming tamoyillari, psixik funksiyalar.

Ключевые слова: инклюзивное образование, образование, нормативно-правовой документ, дети с ограниченными возможностями, образовательный процесс, принципы инклюзивного образования, психические функции.

Key words: inclusive education, education, legal document, children with limited opportunities, educational process, principles of inclusive education, mental functions.

KIRISH

Inklyuziv ta'lism – alohida toifadagi o'quvchilar uchun maxsus ta'lism ehtiyojlarini va individual imkoniyatlarda farqni inobatga olib ta'lism jarayonida ilm olish huquqini ta'minlashdir. Shuningdek inklyuziv ta'lism nogiron bolalarni ta'lism jarayoni bilan qamrab olish hamda ularni ta'lism tizimiga moslashtirishni aniq maqsad etib belgilaydi. Inklyuziv ta'lism bolalarga yo'naltirilgan metodologiyani rivojlantirishga intiladi va barcha bolalar ta'limda, ta'lism jarayonida turlicha ehtiyoja ega individlar ekanligini tan oladi. Bunday ta'lism o'qitish jarayonida turli mazkur ehtiyojlarni qondirish uchun qulay bo'lgan ta'lism berish va o'qitishga yondashuvni ishlab chiqishga intiladi[1]. Agar ta'lism berish va o'qitish inklyuziv ta'lism kiritadigan o'zgarishlar natijasida yanada samaraliroq bo'ladigan bo'lsa, bu barcha bolalarning yutug'i hisoblanadi. Shubhasiz, har qanday bolaning hech kim daxl qila olmaydigan huquqi bu – ta'lism olish huquqidir. Imkoniyati cheklangan bolalarning uyda, internatda va boshqa alohida davlat maxsus muassasalarida ta'lism-tarbiya olishining yuzaga kelgan tizimi

bolaga yetarli darajada sifatli ta'lif-tarbiya olish imkoniyatini beradi. Biroq muloqotga kirishish ko'nikmasining yo'qligi sababli, bu bilimlar talab qilinmay qolib ketadi. Shunday qilib, jamiyat moddiy va ma'naviy boyligini yo'qotadi, cheklangan imkoniyatli odam esa, jamiyatni yo'qotib, o'zini ortiqcha odamdek his qila boshlaydi. Bu muammoni yechishni hukumatimiz o'z nazorati ostiga olishi haqida qaror qabul qilmaguncha, vaziyat shu holda davom etib keldi. «Jamiyatning o'zi va unda yuzaga kelgan holatlar imkoniyati cheklangan bolalarni o'z jismoniy jihatdan sog'lom tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishdan cheklab turishi tufayli bu yordam yanada kuchli zaruriyatga aylandi» [2].

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Maqolani tayyorlashda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan; qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, dialektik metodlaridan foydalanildi.

Imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashgan davlat ta'lif muassasalari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarda quyidagilar belgilangan:

rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish;

ularning ta'lif-tarbiya olishlari uchun moslashuv muhitini yaratish va xokazo.

Buning uchun ixtisoslashgan ta'lif muassasalari (maktablar, maktab-internatlar)ning differensiallashgan tarmoqlarini maqbullashtirish uchun bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularda quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

1. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lif muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) to'g'risidagi nizomni joriy etish;

2. Faoliyat ko'rsatayotgan ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatini ikki oy muddatda o'rganish va ularni ushbu qaror bilan tasdiqlangan nizomlar talablariga muvofiqlashtirish;

3. Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatining muntazam nazorat qilinishini ta'minlash, ularga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda har tomonlama ko'maklashish va hk.

Maxsus ehtiyojli o'quvchilar, boshqa bolalar, o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta'lif-tarbiyada o'ziga xos ahamiyatga ega. Bunday ta'lif-tarbiya jarayonida maxsus ehtiyojli bolalar: birinchidan, jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar; ikkinchidan, tengqurlari bilan turli o'yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar. Bolaning salomatligini mustahkamlash va muhofaza qilishda uning umri davomiyligini ta'minlash uchun muhim hayotiy ko'nikmalarni shakkantirish masalasi bosqichma-bosqich ijobji hal etib borilishi lozim. Maxsus muassasalarning har bir tarbiyachisida alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning salomatliklarini mustahkamlab borish masalasiga ilmiy-metodik va amaliy yondashish, ko'nikma malakalarini oshirib borish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun pedagogik-psixologik jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish tizimi, bolalarning jismoniy kamolotga erishuvini ta'minlashning samarali metod va usul-vositalarini ishlab chiqish talab qilinadi. "Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan imkoniyatlari cheklangan bolalarning imkoniyatlarini oshirish, integratsiya va ishtirok etish tamoyilini kiritish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar yaxshi natijalarga olib kelishi bilan birga, o'z navbatida, uni rivojlantirish va muammolarini vaqtida bartaraf etishni taqozo etadi. Bizning fikrimizcha, bu sohada yechimini kutayotgan muammolar yetarli. Inklyuziv ta'limga jalb etilgan bolalar bilan ishslashda induviduallik tamoyillari asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur" [3].

Har bir bolaning jismoniy va ruhiy holatini inobatga olib, uning bor imkoniyatlarini rivojlantirish hisobiga tengdoshlari qatoridan o'rinn egallashiga erishish lozim. Aks holda, istalgan natija bermasligi yoki bolaning salomatligini yanada og'irlashtirib qo'yishi mumkin. Bizningcha, eng avval inklyuziv ta'limga jalb etilishi mumkin bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalardagi nuqsonlarning darajasini, rivojlanish bosqichlarini tibbiy, psixologik-pedagogik, ilmiy me'zonlar asosida aniq belgilab olish kerak. Nogiron bolalar, asosan oilalari bilan muloqotda bo'lib, katta yoshga kirishga tayyor emas va umumiylar tashkiloti - bu bolalar uchun inklyuziya rejimida o'rganish, boshqa bolalar bilan muloqot qilish va dunyo bilan tanishish uchun yagona imkoniyat hisoblanadi. "Inklyuziv - bu nogiron bolalar oddiy bolalar bilan birgalikda davlat dasturi bo'yicha o'qish, boshqa bolalar singari bilimlarni egallash sanaladi". [4]

ILMIY AXBOROT

Maktablarda bolalarning sog'lig'i holatini hisobga olgan holda qo'shimcha shartlar bilan belgilangan yagona tizim yaratilishi kerak. Maktabda psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassislarning mavjudligi nogiron bolalarni qabul qilish va inkyuziv amaliyotni amalga oshirish uchun zaruriy shartdir. Biroq o'quvchi, o'qituvchi va yordamchi mutaxassislarning o'zaro aloqasi darhol yuzaga kelmaydi va har doim ham chinakam jamoaviy bo'lib qolavermaydi, mutaxassislarning har biri o'ziga xos, yuqori darajadagi ixtisoslashtirilgan vazifalarni hal qiladi. Biroq, inkyuziv amaliyotni amalga oshiradigan maktablarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, umumiy tilni topmasdan, bolani ta'lim jarayoniga qo'shish uchun umumiylar maqsadlarni qo'ymasdan, maktabning bu yo'nalishdagi ishini muvaffaqiyatlideb bo'lmaydi.

"O'zbekistonda umumta'limga muktablarida inkyuziv ta'lim joriy etish rejasiga yildan yilga rivojlanib bormoqda. 2023-2024 o'quv yilida alohida ta'lim ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025 yilgacha esa 40 foizi odatiy muktablarga jalb qilinishi kutilmoqda". [5] Shu bilan birga, inkyuziv ta'lim bilan bog'liq qator hal etilishi lozim bo'lgan muammolar masalalar hamda xavotirlar ham yo'q emas.

Umumta'limga muktabiga boradigan imkoniyati cheklangan bolalarga o'qituvchi alohida yondashishi kerak bo'ladi. "Kichik sinf o'quvchilarini nogironligi bor bolalar haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmaydi. Ularning ustidan kulmaslik kerakligini, ular ham boshqalar qatori oddiy odam ekanini, faqat sal kuchsizroq ekanini tushunishmaydi. Yana bir muhim masala bu o'qituvchilar tayyorgarligi, mutaxassislar yetishmasligi hamda umumta'limga muktablari binolarida kerakli sharoitlar yaratilmagani bilan bog'liq. Bu muammolar hal etilmasdan turib, nogironligi bo'lgan bolalar sharoitsiz va salbiy munosabatli muktablarga o'tkazilishi ularning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi" [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Aloida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida bu boradagi asosiy muammolar sanab o'tilgan:

- alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarusur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inkyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'iga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'limga muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inkyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;

- pedagogika yo'nalishidagi OTMlар o'quv dasturlariga inkyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inkyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagan, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda" [7].

Qabul qilingan me'yoriy huquqiy asoslardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, inkyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

- jamoatchilik va ta'lim jarayoning barcha qatnashchilariga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatlarini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiylar, o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiya qilayotgan oilalarga maslahat yordami berish va shu bilan birga ota-onalari farzandlariga ta'lism-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar va ularni pedagogik-psixologik tomonlama qo'llab-quvvatlash shular jumlasidandir.

Inklyuziv ta'limga kompleks yondashishi tamoyiliga ko'ra nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa, maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lism masalasini rejalashtirishni, uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limga nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim va ko'nikmalarga ega qilish, kasbhunarga o'rnatish ishlarni parallel ravishda olib borish talab etiladi. Chunki inklyuziv ta'lism tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir[8]. Bu esa, inklyuziv ta'limga faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislarining kompleks, hamkorlikda yondoshib olib borilgan ishlari natijasida amalga oshirilishi mumkin.

Inklyuziv ta'limga muammolariga to'xtaladigan bo'lsak, ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limga joriy etish bo'yicha davlat normativ hujjatlarida qayd qilinmaganligi; nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabat; imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko'rinnmaslik muammosi; imkoniyati cheklangan bolalarning maktabda ko'rinnmaslik muammosi; moddiy mablag' muammolari; ta'lism muassasalarini moslashtirish; sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi; kambag'allik; jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish; imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi; kadrlar masalasidagi muammolar va boshqa bir qator muammolarni keltirib o'tish mumkin. Haqli savol tug'iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lism tizimiga jaib etish kerak? Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib inklyuziv ta'lism tizimiga o'tishga qanday zaruriyat bor?

Darhaqiqat, bu ta'lism tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lism tizimining foydali jihatni juda ko'p, ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- inklyuziv ta'lism qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- inklyuziv ta'lism barcha uchun ta'lism sifatini yaxshilaydi;
- kamsitishlarni oldini oladi;
- inklyuziv ta'lism yanada inklyuzivlikka olib keladi" [9].

Inklyuziv ta'limga tamoyillari sifatida esa quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

1. Insonning qadr qimmati, uning qobiliyati va yutug'iga bog'liq emas.
2. Har bir inson o'ylash va his qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qibiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir biriga muxtoj.
5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lism olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma kishilar o'z tengdoshlarini qo'llab quvvatlashga muxtoj.
7. Hamma ta'lism oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi.

Inklyuziv ta'lism tizimi quyidagi ta'lism muassasalarini o'z ichiga oladi; maktabgacha umumta'lism, umum o'rta ta'lism, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lism. Bu ta'lism muassasalarining maqsadi bolalarning ta'lism olishi va kasb-hunarga tayyorlashda ularning o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etib ochiq ta'lism muxitini yaratishdan iborat. Umumta'lism maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lism tizimi integratsiyalashgan ta'lism tizimidan o'zinig mazmun – mohiyati, maqsadi, vazifalari va xarakat dasturi bilan farqlanadi. Bolaning tarbiya va o'quv faoliyatida orqada qolishi psixik funksiyalarni o'zlashtirmaganligi natijasidir. Masalan, bolani kiyim kiyishida ketma-ketlikning buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan malakalarni egallamaganligi tufayli ro'y beradi. Bunday psixik muammoni psixoreksiyalash usullari bilan birga bolaga kiyimlarni to'g'ri ketma-ketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin. L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhit sog'ligi imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, degan g'oyani ilgari suradi. "Inklyuziv ta'lism tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko'plab muammolar va to'siqlar mavjud"[10]. Salbiy munosabat – maxsus

ILMIY AXBOROT

ehtiyojli bolalarning umumta'lim muasasalari tizimida ta'lim tarbiya olishlari uchun eng katta to'siq bo'lsa kerak.

XULOSA

Inklyuziv ta'limni maktabgacha va umumiyl o'rta ta'lim maktablariga tatbiq qilishning natijalari imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan qarashlarning tubdan o'zgarishiga olib keladi. Bu esa, ularning har biri uchun hayotda omadli va baxtli bo'lish uchun imkoniyat eshiklarini ochib beradi. Imkoniyati cheklangan bolalar boshqalar singari bir xil sharoitda ta'lim olishi kerak, ularga darsliklar, o'quv qo'llanmalari yetmay qolishi kerak emas. Bunday bolalar ham sog'lom bolalar kabi qiynalmasdan maktabga borishi, kelajakda o'z yo'lini osonroq topishi mumkin. Jamiyat ham imkoniyati cheklangan shaxslarga begonadek ajablanib qaramaydi. Faqat konsepsiya to'liq amalgamoshishi qat'iy nazoratga olinishi, hech narsa qog'ozda qolib ketmasligi kerak. Xalq ta'limi vazirligi ixtisoslashgan muktab o'qituvchilarining xavotirlariga e'tibor berib ularni eshitishi, jamoatchilikning fikrlarini ham o'rganib borishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raxmanova, V.R. (2017). Defektologiya asoslari. T.: NISO POLIGRAF
2. Nurmuhamedova, L.Sh., Abidova D. (2008). Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash yo'llari.
3. Sodiqova, G.A., Nurkyeldiyeva, D.A. (2001). Rivojlaniishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma'ruzalar matni).
4. Qodirova, F.U. (2022). Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyat. 6-8
5. Muzaffarova, X. (2021). Aqli zaiflik tushunchasi talqinidagi nazariy xatolarning salbiy oqibatlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании
6. Temurova, G. (2020). O'yin-eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy qobiliyatlarini faollashtirish omili sifatida. T.: Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
7. Djurayeva, S. (2020). Ijtimoiy sherikchilik asosida imkoniyati cheklangan shaxslarga majmuaviy yordam ko'rsatish.
8. Yunusov, M. (2021). Eshitish qobiliyatini rivojlantirish darslarida multimedia vositalaridan foydalanish metodikasi.
9. Usmanovna, Q.F., Azamkulovna, P. D., & Maxkamovna, M. D. (2022). Inklyuziv ta'limda kadrlar masalasi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali.
10. Azamkulovna, P.D. (2022). Bo'lajak o'qituvchi-defektologlarga ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishni o'rgatish kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish omili sifatida. T.: Scientific Impulse